

*Yoqubbekov Shoxrux.*

*O‘qituvchi.*

*Namangan muhandislik – qurilish instituti.*

*Turg‘unov.Zokirjon*

*O‘qituvchi.*

*Namangan muhandislik – qurilish instituti.*

**NAMANGAN SHAXRINING ISLOM KARIMOV VA  
G‘IRVONSOY KO‘CHALARI BILAN KESISHGAN CHORRAHADAGI  
TIRBANDLIKNI OLDINI OLİSH.**

*Annotatsiya:* maqolada shahar ichi transport oqimining harakatchanligi, zichligi va chorrahalardagi tirbandliklar to‘g‘risida ma’lumotlar tahlili va o‘tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Bunda I.Karimov va G‘irvonsov ko‘chalari bilan kesishgan chorrahalardagi tirbandlikni oldini olish bo‘yicha natijalar va xulosalar qilingan.

*Kalit so‘zlar:* chorraha, transport vositasi, tirbandlik, transport oqimi, zichligi

*Yakubbekov Shokhrukh.*

*Teacher.*

*Namangan Institute of Engineering and Construction.*

*Turgunov. Zakirjon*

*Teacher.*

*Namangan Institute of Engineering and Construction.*

**PREVENTION OF TRAFFIC AT THE INTERSECTION WITH  
ISLAM KARIMOV AND GIRVONSOY STREETS OF NAMANGAN  
CITY.**

*Abstract:* the article presents the results of the study and analysis of data on the mobility, density and congestion of traffic in the city. In this, results and

conclusions were drawn on the prevention of traffic jams at the intersections of I.Karimov and Girvonsov streets.

**Key words:** intersection, vehicle, traffic, traffic flow, density

Hozirgi kunda «tirbandlik» degan umumiy tushuncha mavjud emas. Yo‘l harakatini tashkil qilish mutaxassislari (YHTM) ta’kidlashicha, agar svetafor rejimi davomida haydovchi transport vositasi kesishmadan har qanday yo‘nalishda o‘tish imkoniyatiga ega bo‘lsa, bu vaziyat tirbandlik deb atalmaydi. Agar svetafor rejimining sikli 90 soniya bo‘lsa va haydovchi transport vositasi kesishmadan o‘tishi uchun 3-5 sikl kutishi kerak bo‘lsa, bunday hodisani «tirbandlikka yaqin» deb atash mumkin. Kesishma oldida 7,5 daqiqadan ko‘proq vaqt o‘tkazgan haydovchi tirbandlik vaziyatiga tushadi [1;2]. Mutaxassislarning fikricha tirbandlik tushunchasi transport vositalarining harakatini amalga oshirishdagi kechikish sifatida ta’riflanadi, bu esa ko‘cha va yo‘l tarmog‘ining (KYT) o‘tkazuvchanligining sezilarli darajada pasayishi bilan bog‘liq [3]. Yo‘lning ma’lum bir qismida kelayotgan transport vositalarining intensivligi ushbu uchastkaning o‘tkazish qobiliyatidan oshib ketganda tirbandlik yuzaga keladi [4]. Zichlikning ortishi bilan o‘tkazish qiymati, oqim tezligi nolga tushadi, bu esa tirbandlikka mos keladi. Yo‘l harakati qoidalarida (YHQ) «tirbandlik» atamasi qo‘llaniladi. 13.2-bandda aytilishicha, «kesishmada yoki yo‘l qismlarining kesishmasida tirbandlik yuzaga kelsa, haydovchiga to‘xtashga majbur qiladigan va transport vositalarining ko‘ndalang yo‘nalishdagi harakatiga to‘sinqlik qiladigan holatlarda kesishmaga kirish taqiqilanadi». Barcha talqinlarni umumlashtirib, «tirbandlik»ni yo‘ldagi shunday vaziyat sifatida izohlash mumkin, unda harakatlanishga ruxsat berilgan boshqaruv rejimida ham haydovchi o‘z xohishiga qaramay to‘xtashga majbur bo‘ladi. Amalda “tirbandlik” atamasi bo‘yicha qat’iy tushunchalar qo‘llanilmaydi; odatda, ushbu hodisaga subyektiv va noaniq baho berish imkonini beradigan aniqroq tushunchalar ishlataladi.Ushbu hodisa mezonlarining noaniqligi qisman

tirbandlikning oldini olish, aniqlash va bartaraf etish uchun yo‘l harakatidagi nazorat harakatlarining noaniqligi va samarasizligini tushuntiradi. Qoida tariqasida, tirbandlik - bu yo‘l tarmog‘ining geometrik parametrlarini o‘zgartira olmaslik, shuningdek, harakat intensivligining oshishi natijasida paydo bo‘ladigan salbiy hodisa. Zichlik ortishi bilanoq va tezlikning pasayishi (nolga yaqin) -avtomobil transporti tizimining ishlashi butunlay samarasiz bo‘ladi.(1-rasm)




### **1 - Rasm Shahar yo‘l tarmog‘ida tirbandlik holati.**

Ushbu sohada tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, transport oqimi intensivligi qiymati o‘tkazuvchanlik qiymatiga yaqinlashganda, tirbandlik tarqalishda davom etadi va buning natijasida yo‘l tarmog‘ining «paralizatsiyasi» sodir bo‘ladi [5].

Ma’lumki, tirbandlik yuzaga kelganda yo‘l harakati ishtirokchilarida asabiylik, charchoq va g‘azablanish paydo bo‘ladi. Bu esa baxtsiz hodisalar darajasiga salbiy ta’sir qiladi.

Shahar ichi marshrutlarining boshqa yo‘nalishlardan keskin farq qiladigan belgilaridan biri – bu yo‘lovchilar oqimining kunning soatlari va yo‘nalish uzunligi bo‘yicha notekis taqsimlanishi koeffitsiyentining kattaligidir. «Tig‘iz» soatlarda yo‘nalishdagi mavjud avtobuslar sonining zarur bo‘lgan miqdoridan kamligi, avtobuslar sig‘imidan foydalanish koeffitsiyentining birdan ortib ketishi sababli, avtobusga chiqish va tushishda hamda unda harakatlanishda juda ko‘p

noqulayliklar tug‘diradi. Ba’zi yo‘lovchilar boshqa transportlardan foydalanishga majbur bo‘ladilar [1,2,4,5]. Ushbu masalaning yechimini topish uchun yo‘lning o‘tkazuvchanligi maqbul bo‘lishi talab etiladi. Vaqt birligi ichida yo‘lning ma’lum kesimidan o‘tkazishi mumkin bo‘lgan avtomobillar soniga yo‘lning o‘tkazuvchanligi deyiladi. U avt/soatda yoki avt/sutkada aniqlanadi. Metod va usullar. Tadqiqotlar kuzatish, tahlil qilish usuli bilan o‘tkazildi. Islom Karimov va G‘irvonsov ko‘chalari bilan kesishgan chorrahada tirbandliklarni bartaraf qilish maqsadida kuzatuv o‘tkazilib o‘rganildi (2-rasm). Tadqiqotning dastlabki bosqichida transport oqimini ko‘chaning ikki tomonidagi holat haftaning uch kuni uchun o‘rganildi. Olingan natijalar tahlil qilinib tavsiyalar ishlab chiqildi. O‘rganish va kuzatuvlar asosan kunning eng tig‘iz va transport oqimi ko‘p deb hisoblangan vaqlar uchun amalga oshirildi. G‘irvonsov ko‘chasidan Islom Karimov ko‘chasiga kirish uchun alohida qo‘srimcha bir tasmali karman yo‘lak ochilishi burilib ketuvchi avtomobilarni svetaforda to‘xtab qolishini oldini oladi Islom Karimov ko‘chasidan G‘irvonsov ko‘chasiga kirish uchun ham alohida bir tasmali karman yo‘lak ochilishi burilib ketuvchi avtomobilarni svetaforda to‘xtab qolishini oldini oladi natijada yo‘l tezroq bo‘shaydi. [7,8,9]



## **2-rasm.Islom Karimov va G'irvonsov ko'chalari kesishmasi.**

- 2-rasmida quyidagi belgi qo'shimcha ochilishi taklif etilgan qo'shimcha bir tasmali yo'lak.

Harakat tezligi va harakatni tashkil etish yo'lning o'tkazuvchanligiga ko'p jihatdan bog'liq. Avtomobil harakatlanadigan yo'lining maksimal nazariy o'tkazuvchanligi quyidagi empirik ifoda orqali aniqlanadi

$$P = \frac{1200V}{L_d}, \text{ avt / soat} = 1200 * 40 / 9 = 5333,3. \quad (1)$$

bunda  $V$  – harakatlanish bo'lagidagi harakatlanayotgan avtomobilning tezligi, km/soat;

$L_d$  – avtomobilning dinamik gabariti, m.

Yo'lning transport o'tkazuvchanligi imkoniyatini hisoblash qatnov qismining imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda, qo'shni bo'lakka o'tish mumkin bo'limgan shartga asoslanib bajariladi. Bunday sharoitda dinamik gabarit  $L_d$  ning qiymatini quyidagi formula yordamida aniqlanadi [6].

$$L_d = l_a + l_t + S_t + l_x = 5 + 1 + 2 + 1 = 9$$

bu yerda:  $l_a$  – avtomobilning statik uzunligi (5 metrga teng deb olinadi);

$l_t$  – haydovchining reaksiya vaqtida o'tadigan masofasi;

$l_t = S_t$  – avtomobilning tormoz yo'li; [4]

( $S_t = l''t - l't$ ;  $l't$  – oldindagi avtomobilning tormoz yo'li;

$l''t$  – orqadagi avtomobilning tormoz yo'li);

$l_x$  – xavfsizlik masofasi (2 metrga teng deb olinadi);

$d$  – xavfsizlik oralig'i.


Haydovchining reaksiya vaqtida o'tadigan masofasi I.Karimov va G'irvonsov ko'chalari bilan kesishgan chorrahalarda tirband bo'lganligi bois  $l_t = 1,5$  metrga teng deb olindi. Avtomobillar o'rtasidagi oraliq, haydovchi ishining tig'izligi va uning reaksiya vaqtida o'zaro bog'liq. Avtomobillar oralig'i qanchalik kichik bo'lsa haydovchi ishining tig'izligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Harakat miqdorining qiymatini yo‘lning qatnov qismi chetida turib aniqlangan tadqiqot natijalarining kunlik o‘rtacha qiymatidan foydalanamiz. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. (3) ifodadagi  $N$  ning qiymatini yo‘lning o‘rganilgan qatnov qismidagi oqim eng tig‘iz va zich payt uchun olindi.

(1-jadva) I.Karimov va G‘alaba ko‘chalari kesishmasidagi avtomobillar oqimining miqdori (avt/soat).

*I-Jadval*

| Vaqt          | 8.00-9.00 | 12.00-13.00 | 15.30-16.30 | 17.30-18.30 | Kunlik o‘rtacha |
|---------------|-----------|-------------|-------------|-------------|-----------------|
| Hafta kunlari |           |             |             |             |                 |
| Dushanba      | 750       | 347         | 619         | 864         | 645             |
| Seshanba      | 664       | 364         | 398         | 756         | 546             |
| Chorshanba    | 527       | 227         | 295         | 478         | 382             |
| Payshanba     | 457       | 215         | 224         | 395         | 323             |



**3 - rasm.I.Karimov va G‘alaba ko‘chalari kesishmasidagi avtomobillar oqimining miqdori (avt/soat)**

Demak, hafta boshida ertalabki tranport oqimining jadalligi keskin oshib kechga tomon kamaydi. Keyingi kunlarda aksincha, oqim kechga tomon oshdi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqadiki, ushbu chorrahada tranport qatnovi maqbulligini ta'minlash uchun yo'lning qatnov qismi chetidan o'ng tomonga harakatlanish uchun qo'shimcha bir tasmali karman yo'lak qo'shilishi lozim. Boshqa usulda esa I.Karimov ko'chalari yo'lini ko'prik ustidan ko'tarma yo'l qurish orqali G'irvonsov ko'chasi bilan transport oqimi aralashtirmay shahar yoki shaharlararo yo'lдagi oqimning tirbandligini kamaytiradi. Bu bilan yo'lning transport-piyoda xavfsizligini ham ta'minlash imkoniy yaratiladi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar.**

1. Семенов, В.В. Математическое моделирование динамики транспортных потоков мегаполиса / В.В. Семенов. – М.: ИПМ им. М.В. Келдыша РАН. – 2004.
2. Ластовский, А. 7,5 минуты – и ты в «пробке»...: интервью с заместителем начальника управления ГАИ ГУВД Мингорисполкома, начальником отдела ОДД подполковником милиции К. Страховым / А.
3. Ластовский // Вечерний Минск. – 2002. – 6 июня. Словарь эксперта – автотехника [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.ocenchik.ru>.
4. Сильянов, В.В. Теория транспортных потоков в проектировании дорог и организации движения, М.: Транспорт, 1977. – 303 с.
5. Иносэ, Х., Хамада, Т. Управление дорожным движением, М.:Транспорт, 1983. – 248 с.
6. Сильянов В.В., Домке Э.Р. «Транспортно-эксплуатационные качества автомобильных дорог и городских улиц». – Москва, 2008. – 112 ст.
7. Shahrukhbek, Y., Khoshimboevich, T. Z., & Abdulatif, A. Y. (2022). ENERGY SAVING FACTORS OF FUEL RESOURCES USED IN VEHICLES, AS WELL AS THEIR IMPACT ON THE ENVIRONMENT. Conferencea, 37-39.

8. Shoxrux, Y., Yusufkhon, A., Doston, H., Jakhongir, S., & Alisher, O. (2022). METHOD OF EXPERIMENTAL RESEARCH INTRODUCTION OF A MULTI-LEVEL ESU DIAGNOSTIC SYSTEM SELF-PROPELLED NARROW-GAUGE POWER STATION. Universum: технические науки, (6-7 (99)), 44-49.
9. Азимов, И., Шохрух, Ё., Ўрмонжонов, М., Одилжонов, Ш., & Абдурасулов, М. (2023). РАЗРАБОТКА ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ ТАРИФОВ НА ГОРОДСКОЙ ОБЩЕСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТ. Universum: технические науки, (2-3 (107)), 28-34.